



**BUGUNGI KUNDA KUTUBXONALAR VA KITOB
MUTOLAASIGA MUNOSABAT(MUAMMO VA YECHIMLAR)**

Muhayyo Shomuradova

Xalqaro innovatsion universitet talabasi

Ilmiy rahbar: Nilufar Xamidova, XIU o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo'li esa bitta – kitob o'qishdir. Kitob insonning eng yaxshi do'sti va maslahatchisi, uning donolik va bilim manbaidir. Kitob tafakkur quroli, xazina kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun xalqimiz uni qadrli, obro'li, muqaddas deb bilgan.*

***Kalit so'zlar:** kitobxonlik, kitobxonlik darajasi, mutolaa, kitobxon va kutubxona, kutubxonalar fondi.*

***Abstract.** It is no secret to anyone today that the world can be conquered only through knowledge. And the only way to deeply master knowledge is to read books. A book is a person's best friend and advisor, his source of wisdom and knowledge. Since a book is a tool of thought, a key to a treasure, a source of thought, our people considered it valuable, prestigious, and sacred.*

***Keywords:** reading, level of reading, reading, reader and library, library fund.*

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongg-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan



kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratib, 2017-yil 13-yanvar hamda 2017-yil 13-sentyabr kuni "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi va kitobxonlikni targ'ib etish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risidagi Qaror va farmoyishlari joylarda mahalliy hokimliklar har bir shahar va tumanda kitob savdosiga ixtisoslashgan do'konlarni tashkil etish, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlik subyektlariga foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlarini tekin foydalanish uchun berilishini ta'minlash, ularning moddiy texnik bazasini shakllantirish, va eng asosiysi joylarda zamonaviy tipdagi kitob do'konlari tashkil etish ko'zda tutilgan.

Yaxshi kitobni chiroyli kutubxonada o'qish — bu, albatta, ideal uyg'unlikdir. Tarixga nazar solsak, ilk kutubxonalar taxminan eramizdan 2600-yillar avval paydo bo'lgan ekan. Ammo afsuski, u davrda ma'lumotlarning barchasini saqlab qoluvchi arxivlar mavjud bo'lmagan va bizgacha ular yetib kelmagan. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning bilim olishi, mehnat qilishi, bilim va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlarni yaratish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bu bejiz emas. Chunki, "Yangi O'zbekistonni bunyod etish jarayonida yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko'lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'rin tutadi" Mamlakatimiz rahbarining kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarida o'ziga xos chuqur falsafa bor. Eng avvalo, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk, mo'jizakor kuchdir. Qolaversa, kitob insoniyatning tarixiy



xotirasi, o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib berishga qodir mash’ala hisoblanadi. Zero, kitob irodani toblaydi, boshqaruv mahoratini oshiradi. Bugungi tezkor va zamonaviy sharoitda intellektual salohiyati yuksak kadrlarni tayyorlashda yoshlarning kitobga munosabatini yanada yaxshilash, jamiyatimiz uchun yetuk kadrlar tayyorlanadigan ta’lim maskanlarida mavjud kutubxonalar fondini eng yangi badiiy, ilmiy, sohaga doir, jumladan, davlat tilidagi kitoblar bilan muntazam ravishda boyitib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bu boradagi ishlar albatta bir kun kelib o‘z samarasini beradi albatta. Zotan, Prezidentimiz, “Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi”. – Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, – deb ta’kidlaydilar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mutolaa haqida fikr bildirib, jumladan, shunday degandi: “... hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yana-da oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”.

“Kitob — bilim manbai”, deymiz. Bu isbot talab qilmay haqiqat. Zero, inson bilimni asosan kitob orqali oladi, uning tarbiyasi ham kitob yordamida shakllanadi. Yoshlarimiz badiiy adabiyotlarni o‘qiganda, ularning dunyoqarashi kengayadi, hayotga munosabati o‘zgaradi. Zero, kitob — qalb chirog‘i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, kitobdan taraladigan va elektron nashrdan topib bo‘lmaydigan o‘ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo‘jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko‘ngil cheksiz zavqqa to‘lgan holda kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikr almashishning huzur-halovati tamoman o‘zgachadir.



Sohibqiron Amir Temur ta’biri bilan aytganda, “Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir”. Shu ma’noda, shaklidan qat’i nazar, barcha kitoblar milliy o’zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ’ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.

Alisher Navoiy hazratlari deydilarki, “Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”.

Xalqimizda kitob o’qib, munosib ta’lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug’ullanishning ahamiyatiga doir maqollar ham juda ko’p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Baxt belgisi – bilim”, “Bilim – aql chirog’i”, “Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar”, “Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq”, “Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol”. Bunday purhikmat naqlarni uzoq davom ettirish mumkin. Bolalarni kitob o’qishga qiziqtirishda maktablarning roli beqiyos ekanligi hech birimizga sir emas.

Kitob insonning eng yaxshi do’sti va maslahatchisi, uning donolik va bilim manbaidir. Kitob tafakkur quroli, xazina kaliti, tafakkur manbai bo’lgani uchun xalqimiz uni qadrligi, obro’li, muqaddas deb bilgan. Shu bois kitobga muhabbat, qadrlash, o’qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Inson madaniyati uning kitobida aks ettirilgan. Kitob mutolaasi, asarlar mazmun-mohiyatini anglash insonni komil, zukko, teran tafakkur sohibiga aylantirishi shubhasiz.

Kitoblar qalbimizni ilitadi, ko’nglimizni yoritadi, baxtli va saodatli, nurli kunlarga boshlaydi. So’nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan kitob mutolaasi muhimligi, yoshlar, rahbarlar orasida bu fazilatni targ’ib qilish haqida ko’p bora ta’kidlanmoqda. Amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy izchil islohotlar jarayonida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Aslida ham, kitob va kitobxonlik insonlar ong-tafakkurini teranlashtirib, qalbiga eng go’zal ezgu niyatlarni joylaydigan, ularni yaxshiliklar



olamiga yetaklaydigan ma'naviyat sarchashmasidir. Shuning uchun har doim kitob o'qishga ehtiyojimiz bor. Ba'zan odam moddiy manfaatlar, zamon yangiliklari, internet tizimi ichra kuni va tuni qanday o'tganini ham bilmay qoladi. Bunday yashash tarzidan zerikadi. Nimanidir sog'inganday, izlab topa olmayotganday bo'laveradi. Yuragi siqilib, go'yoki o'ziga sig'maydi. Ko'ngil bir og'iz shirin so'z, bir taskin, malham istaydi. Shunday paytda biz, albatta, kitob varaqlashga tushamiz. Ko'nglimizga yoqqan she'rmi, hikoyami – xoh u qatra bo'lsin yoki salmoqli qissa va romanmi – tuyqus o'qiy boshlaymiz, o'qiyveramiz. Nafaqat o'qiymiz, balki asardagi voqealar rivojiga kirib ketamiz va o'sha yerda yashaymiz. Nihoyat ko'ngil orom olib, qalb taskin topganday bo'ladi. Shundagina adabiyotning kuchini, uning zaruratini chuqur his qilamiz. Zero, yaxshi kitob insonning ko'ngil ko'zgasini poklaydi, shirin xayollar surishga, eng asosiysi, odamlarni tushunishga, kechirishga, ezgulik sari intilib yashashga undaydi. Kitoblar qalbimizni ilitadi, ko'nglimizni yoritadi, baxtli va saodatli, nurli kunlarga boshlaydi. Dunyoni faqatgina ilm bilan zabt etish mumkin ekanligi haqidagi asl haqiqat bugun hech kimga sir emas. Ilmni mustahkam egallashning yo'li esa bitta, ya'ni – kitob o'qish. Mamlakatimizda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, aholining kitobxonlik ko'nikmasini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va keng targ'ib qilish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kelajak avlod uchun, bolalar adabiyotini rivojlantirish, o'quv adabiyotlari va darsliklarning saviyasini ko'tarish uchun zarur bo'lgan barcha ma'naviy, huquqiy va moddiy asoslar yaratildi.